


81. Yuz tushunchasi


Yondosh mavzu:
mozaika.

Yuz,
yuz o'lchovi.




?	2	3
?	0	2
?	?	?

1. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi devorga turli rangdagi plitkalar yopishtirildi. Nechta turli rangdagi plitkalardan va jami nechta plitkadan foydalanilgan?




Yuz – bu shakl tekslikda qancha joyni egallashini ko'rsatuvchi kattalik. Qaysi shakl ko'proq joyni egallashini aniqlash uchun ikkita shaklni umumiy o'lchov bilan o'lchash kerak.






$\square$ e

Yuz – $8e$

2. Shaklda necha a , b va c o'lchovlar borligini aniqlang.



3. Ushbu shakllarning yuzlarini e o'lchov bilan o'lchang. Qaysi shaklning yuzi katta ekanini aniqlang.



$\square$ e



4. Bo'yi 5 katak va eni 4 katak bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yasang. Uning yuzi necha katakni o'z ichiga oladi?



5. Tenglamalarni yeching.

$$(x + 760) - 334 = 615$$

$$(350 + t) - 213 = 521$$



6. Amallarning to'g'ri tartibini ko'rsating. Hisoblang va amallar natijalarini ularning hosil bo'lish tartibida qo'ying. Mozaika elementlari ko'proq nimalardan hosil qilinishini aniqlang.

$$540 + 376 - (560 + (834 - 659)).$$

SH 175

I 735

A 181

SH 916



7. Uncha katta bo'lmagan mozaikani yaratish uchun ustaga 218 ta ko'k detal kerak bo'ldi, bu yashil detallardan 97 ta ko'p va oq detallardan 35 ta kam. Ustaga hammasi bo'lib nechta detal kerak bo'lgan?

Ko'k – 218 ta detal, 97 ta detal ko'p, 35 ta detal kam
 Yashil
 Oq

←

?



8. Daftaringizga tomonlari 10 cm va 4 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak va tomoni 6 cm bo'lgan kvadrat yasang. Ularning yuzlarini katakchalarda toping. Qaysi shaklning yuzi katta?



9. Mozaikali naqsh yaratish uchun bir devorga 236 ta plitka ishlatildi, bu ikkinchi devorga ishlatilganidan 128 ta kam. Agar hammasi bo'lib 720 dona plitka sotib olingan bo'lsa, nechta plitka qolgan?

